

O‘ZBEKISTON HUDUDIDAGI DORIVOR O‘SIMLIKLARNING KIMYOVIY TARKIBI VA FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Nurova Zamira Annakulovna

Tibbiy biologiya va gistologiya kafedrasini mudiri, dotsent

Xaitov Azizxon Axmetovich

Farmakologiya va klinik farmakologiya kafedrasini, assistent

Muxammadiyev Oybek Baxramovich

Davolash fakulteti, 3-kurs talaba

barchasi: ToshDavTU Termiz filiali, Termiz shahri, O‘zbekiston

Dolzarbliq: O‘zbekiston hududi florasi dorivor o‘simliklarga nihoyatda boy bo‘lib, Respublikada 4500 dan ortiq yovvoyi o‘simlik turi aniqlangan. Shundan 600 ga yaqini dorivor sifatida xalq tabobati va farmatsevtika sohasida qo‘llaniladi. Dorivor o‘simliklarning kimyoviy tarkibini o‘rganish farmatsevtika sanoati uchun yangi dori vositalari ishlab chiqishda, shuningdek, xalq tabobatida mavjud tajribalarni ilmiy asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ekologik toza, tabiiy manbalardan olingan preparatlarga talab ortib borayotgani ushbu mavzuni yanada dolzarb qiladi.

Tadqiqot maqsadi: Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — O‘zbekiston florasida keng tarqalgan dorivor o‘simliklarning kimyoviy tarkibini chuqur o‘rganish, ularning biologik faol moddalarini aniqlash va farmakologik xususiyatlarini tajribaviy hamda nazariy jihatdan asoslashdir. Shuningdek, o‘simliklardan olingan ilmiy natijalarni xalq tabobatida mavjud tajribalar bilan solishtirish, ularning amaliy ahamiyatini belgilash hamda farmatsevtika sanoatida yangi, xavfsiz va samarali fitopreparatlar yaratish uchun ilmiy asos ishlab chiqish ko‘zda tutiladi.

Material va usullar: Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekistonning turli hududlarida o‘sovchi Glycyrrhiza glabra (shirinmiya), Hypericum perforatum (zveroboy), Achillea millefolium (qoqio‘t), Artemisia absinthium (achchiq shuvoq) hamda Plantago major (kattabarg poyafzalbarg) turlari tanlab olindi. O‘simlik xomashyosi o‘simliklarning vegetatsiya davrida yig‘ib olindi, farmakognosiyaga usullariga muvofiq quritildi va laboratoriya sharoitida qayta ishlov berildi. Kimyoviy tarkibni aniqlashda gaz-suyuqlik xromatografiyasi, yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YSSX), spektrofotometriya va 151 itrimetric analiz usullari qo‘llanildi. Farmakologik xususiyatlar laboratoriya hayvonlari ustida tajribaviy farmakologiya usullari yordamida o‘rganildi.

Tadqiqot natijalari: Shirinmiya ildizi tarkibidan glitsirriz kislotasi, flavonoidlar va polisaxaridlar aniqlandi; ularning yallig‘lanishga qarshi va immunomodulyator xususiyatlari kuzatildi.

-Zveroboy tarkibida giperitsin, flavonoidlar, efir moylari mavjudligi aniqlanib, antimikrob va antidepressant ta‘siri tasdiqlandi.

-Qoqio‘tdan ajratilgan flavonoidlar va achchiq glikozidlar qon ivish jarayonini sekinlashtirishi va yengil spazmolitik ta‘sir ko‘rsatishi kuzatildi.

-Achchiq shuvoqda efir moylari (tujon, absintin) yuqori miqdorda bo‘lib, ular antiseptik va gijjaga qarshi faollik ko‘rsatdi.

-Kattabarg poyafzalbarg tarkibidan polisaxaridlar va iridoid glikozidlar topilib, ular balg‘am ko‘chiruvchi va yara bitiruvchi ta‘sir namoyon etdi.

Xulosa O‘zbekiston hududida o‘sovchi dorivor o‘simliklarning kimyoviy tarkibi va farmakologik xususiyatlarini o‘rganish natijasida ularning ko‘plab biologik faol moddalarga boyligi aniqlanib, yallig‘lanishga qarshi, antimikrob, antidepressant, spazmolitik, gijjaga qarshi, balg‘am ko‘chiruvchi va yara bitiruvchi kabi muhim farmakologik ta‘sirlarga ega ekani isbotlandi. Bu esa dorivor o‘simliklarni xalq tabobatidagi amaliyotdan tashqari zamonaviy farmatsevtika sanoatida ham keng qo‘llash imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, tabiiy preparatlarga bo‘lgan talab ortib borayotgan hozirgi davrda O‘zbekiston florasidan oqilona foydalanish, ularni qayta ishlash va yangi fitopreparatlar yaratish dolzarb ilmiy va amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.